

NABI JALOLIDDINNING “UMAR XAYYOM” ROMANIDA AKSLAR FALSAFASI VA UNING POETIK TALQINI

Rahima Sattarova

Toshkent tibbiyot universiteti assistenti

rahimasattarova64@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18001639>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi va shoir Nabi Jaloliddin qlamiga mansub ikki tomondan iborat roman-diologiyasi “Umar Xayyom” haqidagi asari xususida soʻz yuritiladi. Xayyom falsafasi Abu Homid Gʻazzoliy bilan kechgan ziddiyatlar, olam hamda odam xususidagi oʻxshatishlari, Allohni tanishga olib boruvchi mushohadali badiiy chizgilariga oydinlik kiritiladi.

Kalit soʻzlar: obraz, falsafa, roman-diologiya, tasvir, uslub, shakl, mazmun, ifoda, poetika.

Annotation. This article discusses the work of the writer and poet Nabi Jalaliddin, a two-part novel-diology about “Umar Xayyom”. Xayyom’s philosophy, conflicts with Abu Hamid Ghazali, his comparisons of the world and man, and his observational artistic lines leading to the knowledge of Allah are clarified.

Keywords: image, philosophy, novel-diology, image, style, form, content, expression, poetics.

Аннотация. В данной статье рассматривается творчество писателя и поэта Наби Джалалуддина, двухтомный роман-диалог об Умаре Хайяме. Разъясняются философия Хайяме, его конфликты с Абу Хамидом Газали, его сравнения мира и человека, а также его наблюдательные художественные линии, ведущие к познанию Аллаха.

Ключевые слова: образ, философия, роман-диалог, образ, стиль, форма, содержание, выражение, поэтика.

Kirish. Malumki, insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan, nafaqat oʻz davrida, balki bugungi dorulomon zamonimizda ham inso boʻlishlik mohiyati yagona Allohni tanishga daʼvat etuvchi xilma-xil ruboiylari bilan shuhrat qozongan Umar Xayyom haqida soʻz aytish uchun yozuvchining katta mahorati, tafakkuri, ibtido va intiho oraligʻidagi shoir oʻy-xayollari bilan uygʻunlashish, kashf etish borasida matonat, mehnat zarur boʻladi. Oʻzbek adabiyotida ana shunday betakror va savobli ishlarga qoʻl urgan taqniqli yozuvchi Nabi Jaloliddin oʻzining qator hikoya va qissalari, romanlari bilan oʻziga xos oʻrin tutadi, desak mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Roman janrining poetik konstruksiyasi eʼtibor beradigan boʻlsak, eposdan oʻsib chiqqan va uning qonuniy vorisi ekanligini adabiyothunoslar eʼtirof etishadi. Roman haqida ayrim mulohazalar haqida soʻz yuritilsa, koʻz oʻngimizga darrov “Oʻtkan kunlar” keladi. Tadqiqotimiz hikoyadan – qissaga, romanga olib boruvchi makon va zamon haqida boʻlgani bois mulohazalarimizni roman tabiatdagi muammolar xususida oydinlashtirishni maqsad qildik.

Adabiyotlar tahlili. Professor D.Quronovning “Roman haqida ayrim mulohazalar” nomli maqolasida yozishicha: “Aslida, romanning ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Romanga bagʻishlan ilk maxsus tadqiqotlardan biri – “Romanlarning paydo boʻlishi haqida risola” (1666)ning muallifi Per-Daniel Yue janrning ibtidosini Provans yo Italiyadan izlash xatoligini, uning ildizlarini juda qadimdan, uzoq oʻlkalardan qidirish kerakligini

ta'kidlaydi. Uning yozishicha, roman antik davrlarda yuzaga kelgan va uzoq asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida hozirgi holiga kelgan. Masalaga tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan qaragani uchun ham Yue o'z davriga kelib "roman janri" tushunchasi o'zgarganini nazarda tutadi va endilikda roman deganda "o'quvchilarga zavq berish orqali nasihat qilish maqsadida to'qib chiqarilgan sevgi tarixini nasrda mahorat bilan tasvirlangan" asar tushunilishini ta'kidlaydi. "Roman o'qish – vaqtni behuda sovurish" qabilidagi qarashga qarshi o'laroq, Yue romanning bosh maqsadi har vaqt ezgulikning taqdirlanishi, yovuzlikning jazolanishini ko'rsatish orqali yozuvchiga saboq berish" deb biladi [2:5]. Binobarin, professor D.Quronovning mana shu talqinida haqiqatdan ham, romanning o'zi bir vaqtlar huddi zavqva shavq berish uchun to'qib chiqarilgan (uydirma, latifa)lar ekanligini ham ko'pchilik G'arb olimlari aytishgan. Undagi voqealar o'quvchini ishontirishi juda murakkab ekankligini tan olishgan. Shunday bo'lsa-da, romanlar yozilgan, o'qilgan, ulardagi hayotiy deb bilgan qahramonlarga esa ergashishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Asar qahramonlaridagi ibratli xarakterlar, voqealar, hikmotomuz mushohadali munozaralar o'quvchi "bo'shlig'ini", tafakkurini boyitishga xizmat qilgan. Ayni tamoyil har bir qahramonning inson o'laroq yashashi, vaqtlar va zamonlar o'tishi bilan katta bir umumlashma hosil qilishga yo'naltirilganini taqozo qiladi. Romanning bir davrda boshqacha ifoda qilinishini fan-texnikaning taraqqiyoti deb qabul qilish lozim. Ruboiylari bilan shuhrat qozongan hamda hozirgi kunga qadar yaratgan asarlari bilan yashab kelayotgan Umar Xayyom badiiy olamini nasriy yo'sinda kashf qilish katta matonat va mehnat talab qilarkan. Maqolamizda yozuvchining poetik tafakkuri, Xayyomni o'z olami bilan kashf etish metamorfozasini anglab yetamiz. Chunki Umar Xayyom va imom G'azzoliyni ko'pchilik bir-biriga qarama-qarshi qao'yib kelgan davrlar silsilasidagi tushunmovchiliklarga barham berishga intilgan yozuvchi, o'zi ayrganidek, "G'azzoliy va Xayyomni asarda do'stlashtirdim" deya baralla iqrorini keltirib o'tadi. Asarda akslar falsafasi ikki yo'sinda yuzaga chiqadi.

Tahlillar va natijalar. Birinchi aks: "Oraliq" deb nomlanib, unda Umar Xayyomning tug'ilishi, olam va odamni tanishi, Allohga bo'lgan ulkan muhabbatining paydo bo'lishi, tadrijiy takomili haqida so'z boradi. Mazkur akslar falsafasi yozilganidan o'n yetti yil o'tib ikkinchi kitobga qo'l uriladi va bir yil davomida yozib tugallanadi. Ikkinchi aks: "G'ayb ostonasida" ikkinchi asardagi Umar Xayyomning fikri-zikri tiniqlashuvi, olam sirlarini tanqidiy ko'z bilan ko'rishi, botinidagi nafsini yengishi, avvalgi Umardan asar ham qolmaganligi, o'z-o'zini anglagani sayin Allohni anglay borish darajotlari inkishof qilinadi.

Mana shu roman-diologiya o'zbek adabiyotida tarixiylik nuqtai nazaridan o'ziga xos yangilik bo'ldi desak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Yana shuni qayd qilish joizki, o'zbek adabiyotida roman-diologiya yozish har kimga ham nasib etavermagan. Romanning birinchi aksidagi ushbu mulohazaga e'tibor qaratamiz:

“Namoz nihoyalagach, masjiddan avvalroq chiqqan Umar Xayyom o‘zini bir chetga olib, ulug‘ vazir Nizom ul-Mulk janoblarining chiqishini kuta boshladi... Olam mudom osuda, havo musaffo, illo bu go‘zal va fayzli xilqatlar kishi umriga barokat berayotgandek tuyuladi. Tabiatdagi bu tiniqlik odamlar shuuriga ham ko‘chgan va ular shuurilaridagi tiniqligi tonggi ibodatni ilohiy ta’siri hamda subhidam tarovatidan o‘zlarini o‘zgacha, balki yengilroq his etadilar. Namozdan turgan va masjidning naqshinkor hashamatli eshiklaridan chiqayotgan ahli taqvodorning yo‘talishlari va hatto tomoq qirishlari ham bomdodiy sokinlik qo‘ynida misli temirchi bolg‘asining tovushiday quloqqa yoqimsiz eshitiladi.. Odamlarning labidan uchgan ojiz shipshishlar yoxud bir og‘iz so‘z ham chor-atrofga aks-sadoday sochiladi... Mana, nihoyat maqsurada (mehrob yonidagi arkoni davlat namoz o‘qiydigan joy) bo‘lgani uchun kechroq chiqqan vaziri a‘zam ham ko‘rindi. U xonaki va odmi bo‘lsa-da, ozoda hamda ohorli libosda bo‘lib, ko‘rinishidan bu libosini faqatgina namoz uchun kiyishini sezish mumkin edi” [3:9].

Mazkur birinchi aksdan olingan ushbu parchada yozuvchi Umar Xayyomning ulug‘ vazir Nizom ul-Mulk bilan tanishuvi, uning bilan diydorlashuvi, xalq hayoti, vatan uchun, Alloh yo‘lidagi suhbatlarning ibtidosi ekanligini chiroyli tashbehtar, o‘xshatishlar bilan tasvirlaydi. Yozuvchi badiiy to‘qimaga shu qadar mahorat bilan nisbat beradiki, o‘qiganingizda beixtiyor o‘sha vaziyatdagi shoir va vazir uchrashuvidagi xolis diydorning nafaqat guvohi, balki ishtirokchisi, hammaslagi sifatida tasavvur eta olamiz. Tiniqlik va shaffoflik bilan berilgan ushbu ta’rifu tavsifga akslar falsafasining *organik modusini* his etish mumkin bo‘ladi.

Umar Xayyom va G‘azzoliy haqidagi yirik falsafiy-estetik maqolasida Abdulla Sher shunday yozadi: “Xayyom murakkab faylasuf-shoir, uning merosiga faqat bir tomonlama yondashish mumkin emas. Ayniqsa, uning ruboiylar muallifi ijodiy tafakkur va dunyoqarashning ko‘pqirraliligidan dalolat betadi. Shunisi muhimki, Xayyomning falsafiy qarashlari risolalaridan ko‘ra ana shu ruboiylarida teranroq ifodalangan. U fikrlarini o‘ziga xos estetik shaklda – go‘zallik va xunuklik, fojiaviylik va kulgililik mezoniy tushunchalari prizmadidan o‘tkazib taqdim etgan” [1:36]. Keltirilgan manbaga tayanadigan bo‘lsak olim Xayom to‘g‘risida mulohaza yuritganda qiyoslashlar, solishtirishlar, tarixiy shart-sharoit, u yashagan davr nafasini anglamasdan turib fikr aytish nojoiz ekanligidan shahodatdir. Chunki yozuvchi badiiy to‘qima orqali Xayyom va G‘azzoliy kashf etish yo‘lidan bormoqda. Xatto masjidga kirib namoz o‘qiyotgan Xayyomni ko‘rib, o‘rnidan turib ketdi degan G‘azzoliyning ushbu mulohazalari tarixiy asarlarda aniq belgilab qo‘lgan. “Muazzin peshin namoziga chaqirganida Imom Gazzoliy: *“Haqiqat keldiyu bema’nilik yutdi”*, deb o‘rnidan turib masjidni tark etadi” [3:26] Endi badiiy asardagi yozuvchi Nabi Jaloliddinning Xayyom hamda G‘azzoliy oralaridagi ziddiyatlarni yumshatishi, qayta kashf etishi haqidagi tafakkuri butun anglashilmovchiliklarga barham berishga arziydi. Yozuvchi o‘ta murakkab nuqtalarga, Xayyomga qilingan tuhmatlar, yolg‘izlik girdobida qolgan benazir shoir ruhiyatidagi

og'riqlar, iztiroblarga Allohning unga bergan noyob iste'dodi, Qur'onga, Islomga bo'lgan munosabatnuqtai nazaridan turib yondoshganligini anglab yetamiz.

Romandagi ikkinchi aks haqida so'z borganda, shuni qayd etish mumkinki, yozuvchi buni "G'ayb ostonasida" deya nomlaydi. Roman-diologiyaning ikkinchi kitobi bilan birinchi kitob orasida o'n uch yil farq bor. Adib o'zi bu oraliqda Xayyom va uning hayotiga daxldor tarixiy, ijtimoiy, fizik, astranomik, din, falsafa va boshqa qator aniq hamda gumanitar ilmlar borasida katta izlanishlar olib borganligini ko'ramiz.

Quyida Xayyomni bezovta qilgan, Yoshi bir joyga brogan olim va shoirning tuyg'ularini yozuvchi shunday tasvirlaydi:

"Xayyom ko'l tomonga o'girildi. Har yoqdan turfa jonzotlar shayxning chaylasi sari tushib kelishar edi. Ammo endi ko'ngildagi hayrat va mayl so'nib bo'lgan, shuurida esa yangi satrlar jilva qila boshlagandi:

*Sotardik xon taxti, toji Kay bo'lsa,
Salla, choponni ham agar nay bo'lsa.
Firibning lashkari bo'gan tasbehni,
Birdan sotar edik qultum may bo'lsa". [4:461]*

Bu mulohazalar Xayyom va Shayx orasidagi kechgan ziddiyatli kechgan suhbatdan tug'iladi. Abu Hoim G'azzoliy bu yerga kelib, Shayxga dunyo va oxirat haqidagi qarashlarini tushuntirsin degandek o'y o'tadi Xayyom qalbidan. Shayxning muhabbati shubhali ekanligini uning xatti-harakatlaridan payqagan shoir yuqoridagi ruboiyni keltirgani bejiz emas. Sotish-manfaat ko'rish. Diniy aqida va ulamolarning nazirlari, kitoblaridagi asl ma'noni anglamay anglamay turib Alloh jamoliga qanday yetishish mumkin degan g'oyani ilgari surmoqda yozuvchi. Bu ikkinchi aksdagi o'ta kulminatsion jihatlardan.

Xulosa. Xulosa shuki, roman-diologiyaning ikkita aksdagi bir-birini to'ldiruvchi mohiyati shundan iboratki, shoir va olim, tarixchi, faylasuf Umar Xayyomni biz boshqatdan kashf qilamiz. Yozuvchi nuqtai nazari, idroki, qarashlari, ilmiy va falsafiy dunyoqarashidagi badiiylik shartlariga to'laqonli muvofiq keladi. Xayyomni ideal, Abu Hoim G'azzoliy bilan ziddiyatli hayotini do'stlashtirishida, aniq yechimga, mohiyatga olib boruvchi sirlar, bilimlarga aniqlik kiritishda qabarib ko'rinadi. Mana shu idrok va tasvir ko'p qirraliligi Umar Xayyomga bo'lgan ulkan va betakror muhabbatning badiiy solnomasi ekanligini dalolatlaydi. Zotan, kitobni o'qigan o'quvchi Umar Xayyom olami bilan yanada birga bo'lishlikni, yaxshilik qilib, hayotda zavqu shavq, "to'garak jahonning" sirlaridan voqif bo'lib yashashini istab qolishiga shak-shubha yo'q!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdulla Sher. Abadiyat nur. –T.: Faylasuflar, 2017.
2. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. –T.: Akademnashr, 2012.
3. Омар Хайям. Трактаты. –Москва. Наука. 1961.
4. Nabi Jaloliddin. Umar Xayyom. Roman-diologiya. –T.: Yangi asr avlodi, 2024.